NAVOIY VILOYATI ZARAFSHON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 28-oktabr | 261-5-78-Q/25 | Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahridagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 9-bobi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2025-yil 2025-yil 3-oktabrdagi 17/02-08/14-583-son va Zarafshon shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining 2025-yil 3-oktabrdagi 07-02/01-10/1590-son xatlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish bo‘yicha taklifiga shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan rozilik bildirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining hududdagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorda kelgusi yil uchun 239 ta ish o‘rnini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 2,9 foiz (32 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 8,2 foiz (19 kishi);

Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 67,8 foiz (137 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 6,2 foiz (15 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 14,5 foiz (35 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,4 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

4. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida quyidagilar:

davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

7. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi nizomning 21-bandi

2-qismiga asosan muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha shahar hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

9. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.Djurayev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Shoxmirzayev zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Shahar hokimi **N.Rahmanov**

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 28-oktabrdagi
261-5-78-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Zarafshon shahrida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli RO‘YXATI**

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
JAMI:			**31607**	**251**	**218**	**31**	**19**	**117**	**15**	**35**	**1**
1	Zarafshon shahar 1-sonli “BOLAJON” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	303490315	91	2	2			1	1		
2	Zarafshon shahar 2-sonli “OLTIN KALITCHA” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	306545281	75	2	1			1			
3	Zarafshon shahar 3-sonli “BURATINO” maktabgacha ta’lim muassasasi	207030214	33		1	1					
4	Zarafshon shahar 4-sonli “YULDUZ” maktabgacha ta’lim muassasasi	207058906	51	2	1			1			

5	Zarafshon shahar 5-sonli “KO‘ZMUNCHOQ” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314864	73	4	2	1		1			
6	Zarafshon shahar 6-sonli "KICHKINTOY ” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314871	77	3	2			2			
7	Zarafshon shahar 7-sonli “BILAG’ON” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314904	69		1	1					
8	Zarafshon shahar 8-sonli “QUYOSHCHA” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314911	64		2	1		1			
9	Zarafshon shahar 9-sonli "QUVONCH” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314928	75	2	2	1		1			
10	Zarafshon shahar 10-sonli “OVUNCHOQ” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314935	69	1	1			1			
11	Zarafshon shahar 11-sonli “AQLVOY” davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	310015386	43		1	1					
12	Zarafshon shahar 12-sonli “AYIQCHA” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314943	69	3	1			1			
13	Zarafshon shahar 13-sonli “NIHOL” nomli maktabgacha ta’lim	207314950	67	1	1	1					

	tashkiloti										
14	Zarafshon shahar 14-sonli “JILG‘A” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314967	73	2	1				1		
15	Zarafshon shahar 15-sonli “TABASSUM” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314974	77	5	1			1			
16	Zarafshon shahar 16-sonli “SADKO” matabgacha ta’lim muassasasi davlat muassasasi	207004197	75		1			1			
17	Zarafshon shahar 17-sonli “ALVON GUL” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	207314982	74	2	2			1	1		
18	Zarafshon shahar 18-sonli “QALDIRCHOQ” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	309132708	24	1	1			1			
19	Zarafshon shahar 20-sonli “KAMALAK” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	303490347	98	6	2			2			
20	Zarafshon shahar 21-sonli “BAXTLI BOLALIK” nomli maktabgacha ta’lim tashkiloti	311527721	36		1			1			
21	Zarafshon shahar 1-sonli xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktabi	200851115	190	5	2		1	1			

22	Zarafshon shahar 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206893375	237	6	3			2	1		
23	Zarafshon shahar 3-sonli kimyo-biologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	206905477	220	4	2	1		1			
24	Zarafshon shahar 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206904486	117	1	2	1		1			
25	Zarafshon shahar 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206907799	75	1	1			1			
26	Zarafshon shahar 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905840	76		2	1		1			
27	Zarafshon shahar 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905500	62	1	1	1					
28	Zarafshon shahar 8-sonli informatika va axborot texnologiyalari chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktabi	206904494	148	7	2			2			
29	Zarafshon shahar 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206904519	109	1	2	1		1			
30	Zarafshon shahar 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905484	200	4	2		1	1			
31	Zarafshon shahar 11-son matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga	306859373	115	3	2			2			

	ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi										
32	Zarafshon shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206905492	269	7	2			2			
33	Zarafshon shahar 13-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	206904502	379	6	3			2	1		
34	Zarafshon shahar 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	311855916	25	2	1			1			
35	Zarafshon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	200010117	52	1	1			1			
36	Zarafshon shahridagi "UMID" reabilitatsiya markaziga ega Davlat ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	309410076	65	1	1			1			
37	Zarafshon shahar 1-son politexnikumi Davlat muassasasi	200010092	204	7	3		1	2			
38	Zarafshon shahar 2-son politexnikumi davlat muassasasi	206968004	115	4	2			2			
39	Zarafshon shahar 7-sonli bolalar musiqa va San’at maktabi davlat muassasasi	203241824	54		1			1			
40	Zarafshon shahar sport maktabi	207116477	87	3	1			1			

41	O`zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Navoiy viloyati boshqarmasi Zarafshon shahar bo‘limi	303288224	78	2	1		1				
42	Viloyat tumanlararo Ftiziatriya va Pulmonologiya dispanseri davlat muassasasi	207184663	113	1	2	1		1			
43	Zarafshon shahar axborot kutubxona markazi	306824132	27		1	1					
44	Zarafshon shahar Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika	200010053	1164	22	15		3	7	2	3	
45	Zarafshon shahar barkamol avlod bolalar maktabi	207116421	60	4	1			1			
46	Zarafshon shahar hokimligi	200010211	73		2	1	1				
47	Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jazoni ijro etish bo‘limi 12-son jazoni ijro etish koloniyasi davlat muassasasi	200010164	131		3	1		2			
48	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish departamenti beshinchi mintaqaviy hudud 36-son manzil	200010267	40		1	1					

	Koloniyasi										
49	Zarafshon shahar Obodonlashtirish boshqarmasi davlat muassasasi	207115430	454	13	9		2	5		2	
50	O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati respublika o‘lat profilaktika markazi Zarafshon bo‘limi	200010243	56	1	1		1				
51	Zarafshon shahar Davlat soliq inspeksiyasi	200010228	37	3	1			1			
52	Zarafshon “Abu Ali Ibn Sino” nomidagi jamoat salomatligi texnikumi davlat muassasasi	200010204	71	6	1			1			
53	NKMK AJ Markaziy kon boshqarmasi	308425864	21148	50	88	13	7	40	8	20	
54	NKMK AJ Zarafshon qurilish boshqarmasi	308425864	1300	15	10			6		4	
55	NKMK jamg‘armasi davlat muassasasi Zarafshon hududiy boshqarmasi	308450922	1412	19	5	1		3			1
56	“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ Qizilqum Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	308743271	866	6	8		1	4	1	2	
57	“Navoiy suv ta’minoti” AJ Zarafshon shahar bo‘limi	300024824	243	5	4		1	1		2	

58	“ISSIQLIK MANBAI” DUK Zarafshon filiali (Qozonxona)	307122468	295	4	4	1		1		2	

Zarafshon shahar hokimining
2025-yil 28-oktabrdagi
261-5-78-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Zarafshon shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar *(davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo'lgan shaxslar
Жами:			**1178**	**43**	**21**	**1**	**0**	**20**	**0**
1	"AREL KONFEKSIYON " MChJ QK	306914621	199	3	3			3	
2	"ZARAFSHON OYNA" MChJ	305120013	150	1	3	1		2	
3	"MODERN TRADING SERVICE " MChJ	304531436	110	3	3			3	

4	"DEFDSH MEGA TRADE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	303396011	112	4	3			3	
5	"PREMIUM SERVICE ZARAFSHAN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	305737122	235	5	3			3	
6	"DREEM-STUDY-ZARAFSHAN" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	306423544	105	2	3			3	
7	"QIZILQUM OLTIN QURILISH" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	307560414	267	25	3			3	